

**BOLALARDA VATANPARVARLIK, INSONPARVARLIK VA  
MEHR-MURUVVAT HIS-TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI**

*Soliev Shavkatbek Narimonjonovich*

*Andijon viloyati, Andijon tumani*

*43- umumiy o'rta talim maktabi direktori*

**Annotatsiya:** Maqolada yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish masalasi taxlil qilindi

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ma'naviyat, "Beshta muhim tashabbus", vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-muruvvat, ma'naviy ehtiyojlar, islohotlar.

### **KIRISH**

Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi keng ko'lamli islohotlar, eng avvalo, aholining nafaqat moddiy, balki ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, shuning barobarida, ularda tom ma'noda yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashgan. Davlat ijtimoiy siyosatining jadal rivojlanishida ma'naviy-axloqiy institutlar roli va ahamiyati muhim o'rin tutishini «jamiyatni yangilash va inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish borasida olib borilayotgan islohotlar natijadorligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan milliy g'oya va mafkuraviy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga qo'yilayotgan talablar isbotlab turibdi. SHu bois, milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari konsetsiyasini hayotimizga to'laqonli joriy etilayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash zarurligini namoyon etmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. SHarq donishmandlari aytganidek, «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!» – deya ta'kidlaydi .

Bugungi kunda yurtimizda yoshlar uchun barcha imkoniyatlar, hususan, ta'lim, fan, sport, adabiyot, madaniyat, san'at va boshqa sohalarda imkoniyatlarning eshigi keng ochilgan. Yurtimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim mакtablarida Muxtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Beshta muhim tashabbus bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar. SHunga ko‘ra, har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o‘z maqsad va mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy tarbiyadir.

Sog‘lom g‘oyaviy tarbiya esa – yuksak dunyoqarash va e’tiqod tarbiyasini ham anglatadi. SHu o‘rinda tarbiya hamda ta’lim beruvchining shaxsiy sifati hamda o‘z ishiga fidoyiligi bu masalada g‘oyat muhim ekanligini unitmaslik kerak. Bu xususda G‘azzoliy shunday yozadi. «Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - erdan ungan ne’matning yaxshi hosil bermog‘i uchun dehqon uning atrofini begona o‘tlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol».

Mazkur fikrlardan xulosa chiqargan holda, yoshlar tarbiyasiga barchamiz mas’ullikni his qilib, jamiyatimizga xos bo‘lmagan illatlarga qarshi birgalikda kurashishimiz lozim. Zero, barkamol avlod va yuksak axloqli vatanparvar yoshlar bugunimiz va ertamizning haqiqiy davomchilaridir.

Yoshlar-bizning kelajagimiz, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi, hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida jismoniy sog‘lom, ma’nana etuk, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hamda ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlodga g‘amxo‘rlik qilishdek ezgu maqsad mujassam.

Zero, jamiyatimizni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish maqsadlari zamirida, inson va uning manfaatlari, yurtimiz taraqqiyotining tayanchi va suyanchi bo‘lgan yoshlar masalasi ustivor masalalar qatorida turadi.

Vatan tuyg‘usi, vatanga e’tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ularini shakllantirish, ularni o‘z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz ma’naviyati va mazmuniga aylanmoqda. Bu borada otabobolarimiz, ajdodlarimiz ishlaridan faxrlangan holda, ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va tadqiq qilish, puxta o‘rganish, hayotimizga tadbiq qilish muammosi qad ko‘tarib turibdi. Bular bolalarimiz va yoshlarimizda bobolari ishlari va nasl-nasablaridan faxrlanish, milliy qadriyat va an’analaramizga sodiq bo‘lishga harakat qilishga undovchi omillar bo‘lib hisoblanadi.

Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati, manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligiga urg‘u bergen.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo‘schnichilik va mehr-muruvvatlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir. Haqiqatdan, qadriyatlarimiz va an’analaramizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratmasdan turib, bu muhim vazifani amalga oshirib bo‘lmaydi.

O‘zbek xalq pedagogikasida bolalarni insonga mehrli, rahm-shafqatli, insonparvar, kindik qoni to‘kilgan zaminiga mehr qo‘yish va h.k kabi tuyg‘ularni singdirishga katta e’tibor berib kelingan. SHu tufayli ham birinchi navbatda bolalarni o‘z yaqin kishilariga ota-onा, aka-uka, opa-singil va oiladagi kattalarga bo‘lgan tabiiy mehr his-tuyg‘ularini shakllantirib voyaga etkazish ko‘zda tutilgan.

Ma’lumki kishilarning, shu jumladan bolalarning ota-onा va qarindosh-urug‘lariga, katta-kichiklarga mehribonligi, g‘amxo‘rligi tug‘ma hodisa bo‘lmay, tarbiya natijasidagina shakllanishi mumkin bo‘lgan fazilatlardir. Bolada ota-onaga mehr-muhabbat hislarining tug‘ulishi ona suti va mehri orqali singadi. SHu sababli ham bolaning ota-onaga bo‘lgan mehr-muxabbatini uning go‘daklik davridan kishini tanishi, unga talpinishidan boshlab, ota-onা bilan payvand holda shakllantiriladi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar ma’naviy-ahloqiy tarbiyasining muhim qismlari bo‘lmish vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ularini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Bunda albatta ota-ananинг bolaga bo‘lgan mehr-muxabbati asosiy shart bo‘lib hisoblanadi. Ota-ananинг bolaga bo‘lgan mehr-muxabbati, fidokorlik va g‘amxo‘rligi o‘z bolalarda ota-onা qadrini oshirishga olib keladi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda yuksak ma’naviy-ahloqiy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ularining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, asosan bolalarning katta kishilar bilan qiladigan o‘zaro muomala, muloqot va munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bolaning atrofidagi katta kishilar (birinchi navbatda ota-onা va pedagoglar) odob doirasidan chiqmaydigan, xush muomalalik va boshqalarga mehribon bo‘lsalar, bolalar ruhiyatida o‘ziga xos taqlidchanlik orqali, xuddi shunday hislar shakllanib boradi. Bolalar his-tuyg‘ulari haqida gapirilganda, shunga e’tibor qilish joizki, ularda o‘z atroflaridagi kishilarga, qo‘ni-qo‘shni, maxallasidagi odamlar, qarindosh-urug‘ va hokazolarga rahmdillik, mehr-muhabbat his, tuyg‘ularini paydo bo‘lishi bola hayotining eng muhim tomoni hisoblanadi. Insonda eng yuqori ma’naviy hislardan vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ulari bir-biri bilan uyg‘unlashib ketgan. Bularni bir-biridan ajratib qarash qiyin. Bular bir-birining zamirida paydo bo‘luvchi, shakllanuvchi va shaxs ma’naviyatini belgilovchi his-tuyg‘ulardir. Mehr-muruvvat his-tuyg‘ulari vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg‘ulari zamirida va aksincha mehr-muruvvat his-tuyg‘ulari zamirida vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Insonparvarlik tushunchasi - o‘zbek millatida o‘ziga xos alohida xususiyatga ega. YA’ni, bu asosan ota-onasiz qolgan bolalarni asrab olish, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, bolani ota-onasidek parvarish qilish, kasal va xastalarni borib ko‘rish, ko‘ngli o‘ksik etimlarga mehribonlik qilish, a’zodor oilalarga ta’ziya bildirish, ma’rosimlarga qatnashish va xonadon sohibasining ko‘nglini ko‘tarish va hokazolardan iboratdir. Bu fikrlar zamirida Ona-Vatan va o‘z xalqiga cheksiz muhabbat va mehr his-tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshgan avlodni kamol toptirish, uning

ongida vatanparvarlik, insonparvarlik va mexr – muruvvat his-tuyg‘ularini shakllantirish vazifasi turganligini anglash qiyin emas. Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoev o‘z asarlarida vatanga va insonga sadoqat, vatanparvarlik va insonparvarlik his-tuyg‘ularini bolalar tarbiyasiga singdirib borish kerakligini uqtirib: «Avvalambor bizning tayanchimiz va suyanchimiz, umidimiz va kelajagimiz bo‘lmish farzandlarimizni, yosh avlodimizni Vatan va insonparvarlik tuyg‘usi va maqsadi ruhida tarbiyalashimiz ham qarz, ham farzdir.

Ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o‘z fikr-tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo‘lgan vatanparvar etib voyaga etkazish - barchamiznyng otalik va onalik burchimizdir», deganlar. Vatan, yurt, millat tushunchalari ulug‘vor tushunchalar bo‘lib, hamisha mehr-muxabbatdan quvvat oladi. SHu jihatdan qaraganda, bu tuyg‘ular egizak qondoshu- jondoshdurlar. Bu his-tuyg‘ularni yosh murg‘ak yuragida uyg‘atish, uni rivojlantirish va takomillashtirib borish, barcha maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari xodimlari faoliyatlarida, ota-on, mahalla fuqarolari va xokazolarning muqaddas burchlari hisoblanadi. Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi, ko‘p jihatdan, barkamol avlod tarbiyasiga bog‘liq. Buning uchun dono xalqimizning va mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo‘llab kelingan eng xalqchil odob namunalari va his-tuyg‘ularni o‘rgatib borishimiz zarur. Pedagogika va psixologiya fanlari bolani har tomonlama tarbiyalashni o‘zining muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydi. U bolaga ahloqiy tassavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning ahloqiy xis-tuyg‘ulari va sifatlarini, ijobiy munosabatlari va xulq madaniyatini shakllantirishiga yo‘llaydi. Bolaning ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ulariga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning samarali bo‘lishi uchun har bir yosh bosqichi ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilish kerak. Pedagog va psixolog olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bolalarda ma’naviy-ahloqiy rivojlanish juda erta boshlanishini ko‘rsatmokda (bola hayotining birinchi oyidayoq kattalar, bilan gaplashganida quvonib ketadi, kulimsiraydi. Bog‘cha yoshiga etganda kattalar bolani yaxshi parvarish qilsalar, ularga mehr qo‘yadi). Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ulari — bu qo‘shaloq tuyg‘ular bo‘lib, ularni bolalarimiz ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimida birgalikda singdiriladi. Bolalarimizning ilk yoshlik paytlaridan boshlaboq, bu yuqori his-tuyg‘ularini shakllantirib, o‘stirib borish - ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib beruvchi keljakdagি barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Vatan tuyg‘usi to‘g‘risidagi fikrlar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘sghan yurtdosh mutafakkirlarimiz al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ulariga sodiq bo‘lib, o‘z asarlarida bu tushunchalarning muqaddas ekanligini XX asrning 30-50 va

nihoyat 80-yillarida xalqimizga qarshi uyushtirilgan ishlarda – qatag‘onlik va surgun azoblarini o‘z boshlaridan kechirib, halok bo‘lgan yurtdoshlarimiz, Abdulla Qodiriy, CHo‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi yozuvchi, shoirlarimiz o‘z asarlarida kuylaganlar. Hayotimizning keyingi yillarida butun jaxon miqyosida ayrim toifa yoshlar miyasini zaxarlashga, ularni ekstremizm va terrorchilik yo‘liga chalg‘ituvchi guruhlarning paydo bo‘lishi, mamlakatimizga kirib kelgan «Vaxobiylirk», «Xizbuttaxrir» kabi zararli oqimlar yoshlarimizni chalg‘itish, ularning ongi va qalbini zaharlab, o‘z ta’sirlariga olish uchun qilgan harakatlari va ba’zi yoshlarning bu ta’sirga berilganliklari, o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga befarq qaramaslikka undaydi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu muammo ustida olib borilgan tadqiqotlarni etarli emasligini qayd etish mumkin. Adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston va xorijiy pedagog va psixolog olimlarimizning bolalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining u yoki bu tomonlarini, tadqiq qilishga qaratilgan salmoqli tadqiqotlari anchagina va ular beqiyos ahamiyatga ega. Lekin kichik maktab yoshdagি bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr his-tuyg‘ulari kabi oliy his-tuyg‘ularni tadqiq qilish va ularning bolalarda shakllantirishning shakl va metodlarini ko‘rsatib beruvchi tadqiqotlar etarli emas. Bolalarning murg‘akligidan boshlab o‘z vatani, xalqi, ota-onasi, qo‘snnisi va maxallasiga vatanparvarlik va insonparvarlik va mehr tuyg‘ularini shakllantirishning shakllari va metodlari me’yoriga etkazib tadqiq qilinmagan. Bular ustida hali ilmiy izlanishlar olib borish kerakligiga yuqoridagi fikrimiz dalil bo‘ladi. Hadislarimizda «Vatanni sevmoq iymondandir» deyiladi. Vatan ostonadan boshlanadi, deydi donishmandlar. Bu dono so‘zlar har bir kishining o‘z vatanini sevish va qadrlashga da’vat etadi. Demak, Vatan inson uchun o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy, go‘shadan boshlanib butun bir mamlakatni qamrab oladi. Vatanni sevish – o‘z ona qishlog‘i, shahri, o‘zi balog‘atga etayotgan joyini sevish va ardoqlashdir. Vatan tuyg‘usi — bu yigirmanchi, o‘ttizinchi, qirqinchи, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarda xalkimizga karshi uyushtirgan qatli ommaviy qatag‘onlarda qamoq va surg‘un azoblarini boshidan kechirgan va halok bo‘lgan Abdulla kodiri, CHo‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari minglab millat gullarini unutmaslikdir. Vatan tuyg‘usi — bu Ikkinci Jahon urushida fashizmga qarshi mardona jang kilgan vatandoshlarimiz èdini extirom bilan eslashdir. Vatan himoyasi yo‘lidagi qahramonlar insoniyat tarixidan hech qachon o‘chmaydi. Vatanni asrash, har bir qarich erini qo‘riqlash, bu muqaddas burch bo‘lib, ozod va mustaqil Vatanga ega bo‘lish xech qachon osonlikcha qo‘lga kiritilmagan. Vatan erki, mustaqilligi va ozodligi yo‘lida qurban bo‘lganlarni abadiy eslash, xotirlash xar bir kishining xalk, millat, Vatan oldidagi imoni va vijdonidir. Vatan muqaddasdir. Undan qimmat, undan aziz, undan shirin, undan ulug‘ ne’mat, boylik yo‘qdir. SHu boylikni kadrlagan, undan cheksiz faxrlangan insongina oilasi, xalqi, atrof muxiti, jamiyatiga mehr-muhabbatli bo‘ladi. Insonni dunyoga keltirishdek mu’jiza yaratgan ona bilan

Vatan hamoxangdir. Vatan ona kabi inson takdirida mu'jizalar makonidir. SHuning uchun ikki mo'jizakor yonma-yon Ona-Vatan deb yuritiladi.

Inson ona uchun kanchalik jonfidolik qilsa, Vatan uchun xam shunchalik qayg'uradi, uni ardochlaydi, sevadi, avaylab-asraydi, turli ofatlardan, dushmanlardan qo'riqlaydi. Kerak bo'lsa, Ona-Vatan uchun jonini qurban kiladi. Munis va mu'tabar Ona insonni shu yorug' dunyoga keltirsa, Vatan uni hayot belonchagida o'stiradi, ulg'aytiradi, shaxsni shaxs sifatida namoyon etadi. SHu boisdan inson uchun Ona - Vatandan ulug'roq, mo''tabarroq, qimmatliroq makon yo'q. Xalq ichida Ona deganda - Vatan, Vatan deganda esa Ona tasavvur etilishida ham majoziy mano bor. Ba'zi bir sabablarga ko'ra, o'zga yurtlarda yashayotgan vatandoshlarimiz ham «Ona-yurtim», «Ota-yurtim», «Kindik qonim to'kilgan yurt» deb faxrlanadilar. Vatanimiz osmonida erk quyoshi porlagach, o'zbek xalqi o'z tilini baralla e'zozlash, asrlar davomida shakllanib kelgan an'analari, kadriyatlarini qaytadan bilish, erkin fikrlash, o'z taqdirini o'zi hal qilish, o'zga yurtlarda Vatan sog'inchida bo'zlab yurgan vatandoshlarimiz ota yurtlariga qo'rmasdan qaytish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Vatan, xalq bor joyda vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu tuyg'u insonni jasoratga, ezgulikka halol mexnatga da'vat etadi. Millatni millat bo'lib shakllanishida turli hayot to'fonlaridan omon saklab qoladigan ham vatanparvarlik tuyg'usidir.

*Vatanparvarlik* - kishining o'zi to'g'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muxabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy axloqiy hislatlari, fazilatlaridir. *Vatanparvarlik* — inson ma'naviy etukligining yuksak mezonlaridan istiqlol mafkurasining negizini tashkil etuvchi qadriyatli va histuyg'ularidan biridir. Vatanparvarlik hissini o'z farzandi qalbiga singdira olgan ota-onaning, shunday ruh, bilan yashaydigan xalqning kelajagi porloqdir. *Vatanparvarlik* — Vatan osoyishtaligi, ota-onas, El- yurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrori bilan puxta qurollanish, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishdir. *Vatanparvarlik* — halol mehnat qilish zamirida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib ulush qo'shish, el-yurt manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yish demakdir. *Vatanparvarlik* — mamlakatimizda yashayotgan xalqlar, elatlari va millatlarniig tili, dini, madaniyati, urf-odatlari aa an'analariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish va ularni o'rganish, millatlararo do'stlik, xamkorlik o'rnatish yo'lida fidoyilik ko'rsatishdan iboratdir. *Vatanparvarlik* — Vatanni har qanday dushmanlardan (ichki va tashqi) himoya etish, millat, xalq, Vatan ozodligi, erkinligi yo'lida kerak bo'lsa jonini ham fido qilish demakdir. *Vatanparvarlik* — jamiyat ravnaqi yo'lida jasorat va qahramonlik ko'rsatish hissining mujassamligidir. *Vatanparvarlik* — har ishda tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik ko'rsatish demakdir. *Vatanparvarlik* — insondagi mustahkam imon va e'tiqod, sog'lom tafakkur va sog'lom fikr birligidir, Vatanparvar inson g'iybat, loqaydlik, xiyonat, sotqinlik,

illatchilik, mahalliychilik kabi illatlaridan yiroqdadir. Vatanparvarlik jaxondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg‘u. Ularning bu haqda qator fikrlari bor. *Sitseron* (Italiya faylosufi). Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrobalar qiymatlidir, lekin muxabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so‘zda mujassamlangan. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, qaysi vijdonli odam uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan. G.Gegel (nemis faylasufi), Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo‘lida qo‘rbon bo‘lishiga hozir ekanlirida aks etadi. J.Delil (fransuz shoiri). Eng maqbul fazilat - Vatanga va odamzodga ko‘rsatilgan xizmatdir. J.Bayron (ingliz shoiri). Kimki o‘z yurtini sevmasa, u xech nimani sevmaydi. J.Russo (fransuz mutaffakiri). Saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo‘lgan muxabbat tufayli vujudga keladi. V. Belinskiy (rus munaqqidi). Kimki o‘z vataniga daxldor bo‘lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas. P. Kornell (fransuz dramaturgi). Kimki Vatanni xor qilsa, u oilasidan ham, bor-budidan ham ayrıladı. V. Gyugo, (fransuz adibi). O‘z Vataniga dog‘ tushurish - uni sotish degan so‘z. YA. Gallon (ukrain adibi). O‘z yurtidan yuz o‘girganlar, o‘z vijdonlaridan ham yuz o‘giradi. M.Salmon Savajiy (fors shoiri). Vatanga nafi yo‘q yashalgan har kun, inson hayotini qilar bemazmun. Haq gap! Har kunimiz Vatanga naf etkazsin, umrimiz sermazmun bo‘lsin. O‘zbek xalqi azaldan. o‘z Vataniga - O‘zbekistonga, Turkistoniga, Turoniga ega bo‘lgan, hech qachon bevatan bo‘lmagan. Bolalarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni bolaning maktabgacha yosh davridan boshlash ota-onaning, tarbiyachi-pedagoglarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir. SHunday qilib, Vatan muqaddasligini saqlash, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan xalq, davlat, mamlakat rivojiga ulkan ulush qo‘shish har bir fukaroning jamiyat, kelajak avlod oldidagi burchidir. Bu burchni halol, pok, fidoyilik va jasorat bilan bajargan insongina haqiqiy vatanparvar bo‘la oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №F-5465-sonli Farmoyishi. // [www.norma.uz](http://www.norma.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.25.01.2020 //[www.uza.uz](http://www.uza.uz).
- 3.Ibrohimova Z. Talim muassasalarida Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatini o‘rganish. Toshkent, 1995.
4. Isomiddinov S. Kichik maktab yoshdagи bolalarda vatanparvarlik-insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Toshkent, 2000.
5. Mirziyoev SH.M. Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. J 1. - T.: O‘zbekiston, 2017.

6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent.: “O‘qituvchi”, 1992.
7. Abu Xamid Muhammad al-G‘azzoliy. Oxiratnama. Buxoro, 1992.
8. 111 vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. – Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, 2012.
9. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. Toshkent, 2003.